

MUHAMMAD AL-XORAZMIY  
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI  
FERGANA BRANCH OF TUIT  
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

# "AL-FARG'ONIY AVLODLARI"

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIM DAGI  
ILMIY, OMMABOP  
VA ILMIY TADQIQOT  
ISHLARI



2-SON 1(6)  
2024-YIL

TATU, FARG'ONA  
O'ZBEKISTON



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

## MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI



**Muassis:** Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

**Chop etish tili:** O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'naliشida maqolalar chop etib boradi.

**Учредитель:** Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

**Язык издания:** узбекский, английский, русский.

Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

**Founder:** Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

**Language of publication:** Uzbek, English, Russian.

The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2024 yil, Tom 1, №2  
Vol.1, Iss.2, 2024 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniy avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fergani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal OAK Rayosatining 2023-yil 30 sentabrdagi 343-sonli qarori bilan Texnika fanlari yo'naliشida milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:  
151100, Farg'ona sh.,  
Aeroport ko'chasi 17-uy,  
202A-xona  
Tel: (+99899) 998-01-42  
e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2024 YIL

## TAHRIR HAY'ATI

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Muxtarov Farrux Muhammadovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

**Arjannikov Andrey Vasilevich,**

Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

**Satibayev Abdugani Djunusovich,**

Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasulov Akbarali Maxamatovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Axborot texnologiyalari kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori

**Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

**G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

**G'aniyev Abduxalil Abdujaliovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrasi t.f.n., dotsent

**Zaynidinov Hakimjon Nasridinovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellekt kafedrasi texnika fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich,**

Farg'ona politexnika instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

**Abdullahov Abdujabbor,**

Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

**Qo'ldashev Abbasjon Hakimovich,**

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

**Ergashev Sirojiddin Fayazovich,**

Farg'ona politexnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, professor

**Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari

**Zulunov Ravshanbek Mamatovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasи dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

**Abdullaev Temurbek Marufovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Axborot texnologiyalari kafedra mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

---

**Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:**



*Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.*

## MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Sotvoldiyev Xusniddin, Abdurahimova Mubiynaxon Ikrom qizi, Алгоритмы синтеза адаптивных систем управления нестационарными системами при неполной информации	6-12
Лазарева Марина Викторовна, Порубай Оксана Витальевна, Оптимизация режимов работы объектов возобновляемой энергетики для обеспечения энергией сельского хозяйства	13-23
Bozarov Baxromjon Ilxomovich, TRIGONOMETRIK VAZNLI OPTIMAL KVADRATUR FORMULALARNI KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI TASVIRLARINI QAYTA TIKLASHGA TATBIQI	24-27
Saidov Mansurjon Inomjonovich, Fisher statistikasida markaziy limit teoremlardan foydalanish	28-34
Saidkulov E.A., ZARAFSHON DARYOSINING FARKTAL XUSUSIYATLI TARMOQLARINI QURISH	35-40
Бозоров Алишер Ганишер угли, Метод диагностики по характеристической частоте АБ(аккумуляторных батарей)	41-45
Daliyev B. S., Sobolevning fazosida Abel umumlashgan integral tenglamasini yechish uchun optimal koeffitsiyentlar va optimal kvadratur formulaning normasi	46-53
Nurjanov Furqatbek Reyimberganovich, SUNIY INTELLEKT USULLARI YORDAMIDA TASVIRDAN SHAXSNING YUZ TASVIRI JOYLAGHGAN SOHASINI TOPISH ALGORITMLARI	54-60
Boyquziyev Ilhom Mardanoqulovich, Rahmatullayev Ilhom Raxmatullayevich, Axadova O'g'iloy Chorshanbi qizi, RSA shifrlash algoritmining maxfiy kalitini aniqlash algoritmi	61-67
Sharifjanova Nilufar Muratjanovna, Yakubov Maksadhon Sultaniyazovich, Nurilla Ergashvaevich Mahamatov, ALGORITHM FOR LOCAL LOOP OPTIMIZATION OF MULTISTAGE FLOTATION PROCESSES	68-75
Rashidov Akbar Ergash o'g'li, Axatov Akmal Rustamovich, Nazarov Fayzullo Maxmadiyarovich, ICHKI TAQSIMLASH MEXANIZMIDA MA'LUMOTLAR OQIMLARINI BOSHQARISH ALGORITMI	76-82
Beglerbekov Rasul Jubatxonovich, Babanazarov Danil Jandullayevich, INFORMATIV BELGILAR FAZOSIDA TIMSOLLARNI TANIB OLISH VA ULARNI SHAKLLANTIRISH ALGORITMI	83-86
Kuvandikov Yokub Tursunbayevich, KULTIVATOR O'QYOYSIMON PANJALARINING YEYILISHINI O'RGANISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	87-90
Горовик Александр Альфредович, Лазарева Марина Викторовна, Моделирование алгоритмов взаимодействия обучаемого с обучающими курсами	91-100
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Uzakov Barxayotjon Muhammadiyevich, Xoshimov Baxodirjon Muminjonovich, FARG'ONA NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI UCHUN AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINI MATEMATIK MODELI VA ALGORITMLASH JADVALINI REJALASHTIRISH VAZIFALARI	101-108
Мелиев Фарход Фаттоевич, Мелиев Фатто Мухаммадиевич, Обнаружения объектов на гистологических изображениях на основе сопоставления шаблонов	109-113
Sharabayev Nosirjon Yusubjanovich, Kayumov Ahror Muminjonovich, TRIKOTAJ TO'QIMALARINING STRUKTURASINI KOMPYUTER KO'RISH TEXNIKASI ASOSIDA TASNIFLASH	114-118
Mirzakarimov Baxtiyor, Mamadalieva Lola, Xayitov Azizjon, DEVELOPMENT OF A HYBRID ENERGY COMPLEX WITH MICRO-HYDRO AND SOLAR POWER IN UZBEKISTAN	119-123
Turakulov Otabek Xolmirzayevich, Mamaraufov Odil Abdixamitovich, Do'ztmxammedova Munira Farxodovna, IJTIMOIY MEDIA STRUKTURALANMAGAN MATNLI MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASHDA TASNIFLASH MASALASI	124-128
Xalilov Muxammadmuso Muxammadyunusovich, Dalibekov Lochinbek Rustamovich, Murodullayeva Rayxona Abduraxmon qizi, OPTIK TOLALARDA SIGNALLARNI YO'QOLISHINI OLDINI OLISH VA AXBOROT XAVFSIZLIGI TA'MINLASH	129-131
Uzakov Barxayotjon Muhammadiyevich, NEFTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARI FAOLIYATI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	132-139
Umarov Xasan Abdullayevich, INTERPOLYATSIYA MASALALARINI YECHISH VA TAHLIL QILISHDA LAGRANJ USULI	140-142
Abduraxmanov Ravshan Anarbayevich, TASVIR GISTOGRAMMALARINING TAHLILI VA STATISTIK MA'LUMOTLARI	143-145
Логинов Павел Викторович, Акбаров Нодирбек Аскаралиевич, Хамидов Сайджон Собитжон угли, ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПАРАМЕТРОВ НЕЛИНЕЙНОГО ДЕФОРМИРОВАНИЕ ГРУНТОВ	146-151
Rayimjonova O. S., Nurdinova R. A., BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH SISTEMALARI UCHUN ISSIQLIK O'ZGARTIRGICHLARNI TADQIQ QILISH	152-157
Asrayev Muhammadmullo Abdullajon o'g'li, G'oipova Xumora Qobiljon qizi, Abdurasulova Dilnoza Botirali qizi, QO'LYOZMA TASVIR BELGILARINIG NEYRON TARMOQLAR ORQALI TAQQOSLANISHI	158-161
Xoshimov Baxodirjon Muminjonovich INTELLEKTUAL BOSHQARISHTIZIMLARI YORDAMIDANEFTNI REKTIFIKATSİYA JARAYONINI BOSHQARISH	162-168
Kurbanov Abduraxmon Alishboyevich, INSON TANASI HARAKATLARINI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY MODELLAR VA ALGORITMLARNI QO'LLASHNI O'RGANISH	169-175
Dalibekov Lochinbek Rustambekovich, PAXTANI BIRLAMCHI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA KUCHLI ELEKTROSTATIK MAYDONLARNI YARATISH UCHUN MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATI	176-180
Mirzayev Jamshid Boymurodovich, KORXONA VA TASHKILOTLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI RISKLARINI BAHOLASH USULLARINI TAHLILI	181-184
Jo'rayev Mansurbek Mirkomilovich, Nozik sug'orish tizimlari monitoring qilishda ma'lumotlarni uzatish texnologiyalar tahlili	185-188

## MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Sattarov Maxammadjon Fozil o'g'li, SOG'LIQNI SAQLASHNI AVTOMATLASHTIRISH: BEMOR TAJRIBASINI YAXSHILASH YO'LI	189-195
Husniya Ahmedova, ORGANIZATION OF WORD SEARCH IN UZBEK TEXTS BASED ON BOYER-MOORE-HORSPOOL ALGORITHM	196-201
Shamsiev Kalibek Saribaevich, Oybek Bektoshev Qosimjon ug'li, SIKLON REJIM KO'R SATGICHLARINING SAMARADORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH NATIJALARI	202-205
Otaqulov Oybek Xamdamovich, Nabiyev Iskandar Farxodjon o'g'li, Nabiyeva Maysaraxon Shuxratjon qizi, CHIZIQLI VA AFFIN MODELLARI YORDAMIDA SENSORLAR TAHLIL QILISH	206-209
Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna ISSIQLIK ENERGETIKA OBYEKTLARINING TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI NORAVSHAN-MANTIQIY BOSHQARISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH	210-219
Якубов Максадхан Султаниязович, Хошимов Баходиржон Муминжонович, Узаков Барҳаётжон Муҳаммадиевич, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ РЕКТИФИКАЦИИ НЕФТИ	220-228
Sattarov Nosirbek Abdulhodi o'g'li, Jo'rayev To'xtamurod Ixvoljon o'g'li, Sadikova Munira Alisherovna, TASVIR KONRASTINI KUCHAYTIRISH ALGORITMLARI	229-231
Исроилов Шаробиддин Махаммадиусуфович, Набиев Искандар Фарходжон ўғли, К ТЕОРЕТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ПРОЦЕССА ДИФФУЗИИ КОНТАКТНОЙ ДОРОЖКИ НАГРЕВА АВТОМОБИЛЬНОГО СТЕКЛА	232-236
Садикова Мунира Алишеровна, Зиятдинов Марсель Ринатович, ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИГРОВОЙ ИНДУСТРИИ	237-241
Okhunov Dilshod Mamatjonovich, Okhunov Mamatjon Xamidovich, Muminov Kamolkhon Ziyodjon ugli, Muhtoriddinov Muhammadyusuf Temirhon ugli, THE CONCEPT OF MARKETING AT IT INDUSTRY ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF THE ECONOMY	242-248
Камилов Мирзаян Мирзаахмедович, Худайбердиев Мирзаакбар Ҳаккулмирзаевич, Алимжанова Ойимбуш Собиржон кизи, Процесс моделирования спроса на товары с использованием алгоритмов машинного обучения	249-254
Radjabov Sobirjon Sattorovich, Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, Mardihev Azamat Shakar o'g'li, QO'LYOZMA MATNI TASVIRI SIFATINI OSHIRISHNING SAMARALI ALGORITMINI TANLASH	255-260
Yuldasheva Nafisa Salimovna, SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIKATSİYALASH TİZİMİNING ASOSIY MASALALARI	261-267
Nishanov Akram Xasanovich, Beglerbekov Rasul Jubatxanovich, Babanazarov Daniil Jandullayevich, BELGILAR ASOSIDA QOVUN NAVLARINI XUDUDLAR BO'YICHA TASNİFLASH MASALASI, UNING MATEMATİK IFODALANISHI VA ALGORITMI	268-273
Мирзаева Малика Бахадировна, Сулейманов Анвар Аскarovич, К АНАЛИЗУ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ СЕТЕЙ СВЯЗИ	274-280
Керимов Комил Фикратович, Азизова Зарина Ильдаровна, Анализ трафика сети с применением алгоритмов машинного обучения в автоматизированной информационной системе быстрого реагирования на инциденты информационной безопасности и фильтрации трафика сети	281-285
Отакулов Ойбек Хамдамович, Азамхонов Баходир Саиткамолхонович, Набиев Искандар Фарходжон угли, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ АЛГОРИТМОВ ФИЛЬТРА КАЛМАНА ДЛЯ ОБНАРУЖЕНИЯ ОШИБОК В АВТОМАТИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ	286-290
Djabbarov Dilshod Turdikulovich, Asrayev Muhammadmullo Abdullajon o'g'li, G'oipova Xumora Qobiljon qizi, VIDEO TASVIRLARDA INSON KO'ZLARINI ANIQLASH UCHUN CHUQUR O'RGANISH ALGORITMLARIDAN FOYDALANISH	291-295
Kabildjanov Aleksandr Sabitovich, Pulatov G'iyos Gofurjonovich, Pulatova Gulxayo Azamjon qizi, OB-HAVO SHAROITLARINING YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIKA TA'SIRINI ANIQLASHNING ANALITIK TAXLILI	296-300
Tojieva Feruza, Khamdamov Utkir, MACHINE LEARNING ALGORITHMS ANALYSIS FOR NETWORK TRAFFIC CLASSIFICATION	301-305
Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o'g'li, Nabiyev Iskandar Farxodjon o'g'li, Nabiyeva Maysaraxon Shuhratjon qizi, AQLI SVETOFOR TIZIMINI LOYIHALASH	306-310
Baxtiyor Mirzakarimov Abdusolomovich, Sidiqov Azizbek Abdullo o'g'li, O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI TZIMIDAGI TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	311-317
Komilov Abdullajon Odiljon o'g'li, Nur diodlarining ulanish sxemalari va ishslash rejimlari	318-321
Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Samatova Zarnigor Nematovna, KIBER XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA UNI TA'MINLASH USULLARI	322-326
Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o'g'li, Nabiyev Iskandar Farxodjon o'g'li, Nabiyeva Maysaraxon Shuhratjon qizi, ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA PAST MALAKALI ISHCHILAR VA ROBOTLAR O'RTASIDAGI FARQLARNI TAHLIL QILISH	327-329
Soliev Bakhromjon Nabijonovich, Real-Time Moving Object Detection from Video Streams in Python: Techniques and Implementation	330-335
Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Soliev Bakhromjon Nabijonovich, Ermatova Zarina Qakhramonovna, Enhancing Clarity with Techniques for Recognizing Blurred Objects in Low Quality Images Using Python	336-340

## ICHKI TAQSIMLASH MEXANIZMIDA MA'LUMOTLAR OQIMLARINI BOSHQARISH ALGORITMI

**Rashidov Akbar Ergash o'g'li**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Samarqand davlat universiteti  
Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedasi mudiri  
researcher.are@gmail.com

**Axatov Akmal Rustamovich**

Texnika fanlari doktori, professor,  
Samarqand davlat universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha  
prorektor  
akmalar@rambler.ru

**Nazarov Fayzullo Maxmadiyarovich**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Samarqand davlat universiteti Intellektual tizimlar va  
kompyuter texnologiyalari fakulteti dekani  
fayzulla-samsu@mail.ru

**Annotatsiya.** Bugungi kunda raqamli ma'lumotlar – tezkor va optimal qaror qabul qilishning asosi sifatida qaraladi. Shu sababli barcha sohalarda raqamli ma'lumotarni to'plash, qayta ishslash jarayonini tashkil etishga kuchli e'tibor qaratilmoqda. Biroq ma'lumotlar hajmining oshib borishi ushbu jarayonda ham vaqt bilan bog'liq bo'lgan, ham iqtisod bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yaratmoqda. Boshqacha so'z bilan aytganda, ma'lumotlar hajmining o'sib borishi ularni saqlash va qayta ishslash vaqtining oshishiga hamda an'anaviy usullarning imkoniyatlari cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki katta ma'lumotlar bilan bog'liq holatlarda taqsimlangan hisoblash tizimlariga asoslangan yondashuvlar eng samarali yondashuv sifatida qaraladi. Aniqroq qilib aytganda, ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlar orqali ham vaqt bo'yicha, ham iqtisodiy jihatdan samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi. Lekin ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlarda samaradorlik bir nechta murakkab jarayonlarga bog'liq hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni to'g'ri tashkil etmaslik tizim samaradorligiga salbiy tasir ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot ishida, ushbu murakkab jarayonlarni hisobga olgan holda ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlarda ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda algoritmning har bir qadami izohlanadi. Tadqiqot so'ngida ichki taqsimlash mexanizmida ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmini qo'llashning tajriba natijalari keltiriladi va natijalar izohlandi.

**Kalit so'zlar.** Taqsimlangan hisoblash tizimlari; ichki taqsimlash mexanizmi; katta ma'lumotlar oqimlari; gorizontal taqsimlangan jadvallar; boshqaruv algoritmi.

### 1. Kirish

Bugungi raqamli dunyoda barcha sohalarda katta hajmdagi ma'lumotlar oqimlarini ko'rish mumkin. Ushbu ma'lumotlarni saqlash va qayta ishslash jarayonida bir qancha murakkabliklar mavjud bo'lsada, ular asosida qabul qilingan qarorlar aniqligi yuqori hisoblanadi [1-3]. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, qarorlarning aniqlik darajasi ushbu

qarorni qabul qilishda foydalanilgan ma'lumotlarga to'g'ri proporsional hisoblandi. Shu sababli bugungi kunda barcha sohalarda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohaga oid barcha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish sohaning asosiy ish rejasining bir qismi sifatida qaralmoqda [4, 5]. Biroq ma'lumotlar hajmining o'sish xususiyatiga ega ekanligi ushbu jarayonda ma'lumotlarni qayta ishslash vaqt bilan



bog'liq bo'lgan muammolarni yaratmoqda. Ya'ni an'anaviy ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash tizimlarida ma'lumotlarni qayta ishlash vaqt ma'lumotlar hajmiga mutanosib ravishda o'sib boradi, shu sababli ushbu tizimlar katta hajmga ega ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlashda samaradorlik ko'rsata olmaydi. Ushbu holatda eng samarali deb qaraladigan yondashuvlardan biri bu - bir nechta hisoblash mashinalarining hamkorligida ishlovchi taqsimlangan hisoblash tizimlari hisoblanadi [6-8]. Taqsimlangan hisoblash tizimlari miqqiyosilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ma'lumotlarning katta hajmi muammosini bartaraf eta oladi [9,10]. Ya'ni taqsimlangan hisoblash tizimi ma'lumotlar hajmi oshish muammosini yangi resurs qo'shish orqali bartaraf eta oladi. Ushbu yondashuv vaqt jihatdan yuqori samaradorlik qayt eta oladi. Biroq ushbu yondashuvda qo'shimcha resurs qo'shish qo'shimcha xarajatlarga olib kelganligi sababli iqtisodiy jihatdan samaradorlik ko'rsata olmaydi [11]. Shuning uchun bugungi kunda katta ma'lumotlar oqimlarini saqlashva va qayta ishlashda ham vaqt jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan samarali yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy kompyuter fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki ichki taqsimlash yondashuvi o'zining xotirasi chegarasi doirasida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda ham vaqt jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Lekin ushbu yondashuvda samaradorlik quyidagi murakkab jarayonlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liq hisoblanadi [12]:

Ma'lumotlar hajmiga mutanosib taqsimlanishlar (gorizontal taqsimlangan jadvallar – GTJ lar) sonini oshirib borish;

Ma'lumotlar oqimlarini aniq qoidalar asosida taqsimlash;


Ma'lumotlarni imkon qadar gorizontal taqsimlangan jadvallarga teng taqsimlash.

Ushbu jarayonlar ma'lumotlar oqimlari hajmi oldindan bashorat qilish imkoniyati doim ham mavjud bo'lmasligi hamda ma'lumotlar oqimlari o'zgaruvchan bo'lganligi sababli ichki taqsimlash mexanizmini amalga oshirishda murakkabliklar tug'diradi. Mazkur

tadqiqot davomida ushbu murakkab jarayonlarni hisobga olgan holda ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlarda ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi ishlab chiqish ketma-ketligi yoritiladi va ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlarda ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi ishlab chiqiladi.

### Usullar va materiallar

Ichki taqsimlash mexanizmi asosida ma'lumotlar oqimlarini boshqarishni bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki funksiyaning birligi sifatida qarash mumkin. Birinchi funksiya ma'lumotlar oqimlarini qabul qilish, ya'ni uni gorizontal taqsimlanishga ega jadvallarga taqsimlangan holda saqlash vazifasini bajarsa, ikkinchi funksiya ushbu jadvallarda saqlangan ma'lumotlarni qayta ishlash, ya'ni so'rovlarni to'g'ri tashkil qilish vazifasini bajaradi [13-15]. Birinchi funksiya ma'lumotlar oqimlarini boshqarishda murakkab jarayonlarni amalga oshiradi. Shunday jarayonlardan biri ma'lumotlar bazasi tarkibidagi gorizontal taqsimlanishlarga ega bo'lgan jadvallar sonini saqlanayotgan ma'lumotlar hajmiga mos holda oshirib borish jarayonidir [16, 17]. Umumiyl holda gorizontal taqsimlanishi lozim bo'lgan jadvallar sonini saqlanayotgan ma'lumotlar hajmiga mutanosib ravishda oshirib borish quyidagi blok-sxema asosida amalga oshiriladi:




1-rasm. Gorizontal taqsimlanishi lozim bo'lgan jadvallar sonini saqlanayotgan ma'lumotlar hajmiga mutanosib ravishda oshirib borish algoritmi



Yuqoridagi 1-rasmida tasvirlangan algoritmdan ko'rinishib turibdiki, ichki taqsimlash mexanizmi asosidagi ma'lumotlar oqimlarini boshqarish jarayoni ham barcha jarayonlar kabi hisoblash mashinasining ma'lumotlar bazasi uchun ajratilgan bo'sh xotira hajmi qolmaguncha davom etadi. Bu algoritmnинг birinchi shartdagi belgilangan chegaralar gorizontal taqsimlanishi lozim bo'lgan jadvalning 2 ta, 3 ta, 4 ta va hokazo gorizontal taqsimlangan jadvallarga bo'linishi uchun jadvallardagi yozuvlarning umumiyligi soniga qo'yilgan chegaralardir. Bu chegaralarni aniqlash jarayoni murakkab jarayon bo'lib, chegaralar nafaqat yozuvlar soniga balki so'rovlarning bajarilish vaqtiga ham bog'liq ravishda aniqlanadi. Ya'ni so'rov bajarilish vaqtini qisqa bo'lishi chegara qiymatlarining kichiklashishini talab qiladi.

Yozuvlar soniga qo'yilgan chegaralar so'rovlarga bog'liq bo'lgani uchun dastlabki chegaralarni aniqlash uchun maxsus gorizontal taqsimlangan jadvallar ustida tajribaviy so'rovlarni bajarishni talab qiladi. Ushbu tajribani amalga oshirishda yagona hisoblash mashinasi tarkibidagi ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan 40 million qatorli yozuvlarga ega jadvaldan foydalanildi. Bu jadvalning ma'lumotlar asosida 5 xil tajriba o'tkaziladi. Birinchi tajriba sinovlarida 40 million qatorli yozuvli jadvalning o'zida qidiruv so'rovlari amalga oshirildi. Keyingi tajriba sinovlarida ushbu jadvaldagi ma'lumotlar dastavval 2 ta, 13 ta, 26 ta va 49 ta gorizontal taqsimlangan jadvallarga ma'lum qoida asosida taqsimlandi. So'ngra har biri gorizontal taqsimlanishlarga ega jadvallar guruhida birinchi tajribadagi qidiruv so'rovlari alohida-alohida amalga oshirildi.

Ushbu tajriba jarayonida so'rovlarni vaqtini va shu so'rov amalga oshirilgan vaqtidagi gorizontal taqsimlangan jadvallar (GTJ) sonini hamda ulardagi umumiyligi yozuvlar sonini yozib olish talab etiladi. So'rovlarni aniqlash quyidagi blok-sxemada ko'rsatilgan algoritmdan ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi (2-rasm).



## 2-rasm. Gorizontal taqsimlangan jadvallarda so'rovlarni vaqtini aniqlash algoritmi

Ushbu 2-rasmida keltirilgan algoritmdan ko'rinishib turibdiki, so'rov kiritilishi bilan tizimning oniy vaqtini aniqlanadi, so'ngra so'rov so'rovlarni taqsimlash funksiyasiga uzatiladi. Taqsimlash funksiyasi so'rovni joriy gorizontal taqsimlangan jadvallarning biriga uzatadi. So'rov yakunlanishi bilan yana tizimning oniy vaqtini aniqlanadi va undan so'rov kiritilish vaqtini ayrib so'rov uchun ketgan vaqt topiladi. So'rov bajarilgan gorizontal taqsimlangan jadvallar soni ( $n$ ) va ulardagi umumiyligi yozuvlar soni ( $N$ ) aniqladandi va tajriba sinovlarida foydalanish maqsadida topilgan uchta ko'rsatkich xotiraga saqlab qo'yiladi.

Yuqoridagi GTJ larda so'rovlarni vaqtini aniqlash algoritmi asosida o'tkazilgan so'rov natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Gorizontal taqsimlangan jadvallar soni	1	2	13	26	49
Qidiruv so'rovlari uchun ketgan o'rtacha vaqt (sekundlarda)	23,25	7,23	1,33	0,82	0,77
Har bir guruh tarkibidagi GTJ-lardagi o'rtacha yozuvlar soni	40 mln	20 mln	3.079 mln	1,538 mln	0,816 mln

1-jadval. Turli sondagi gorizontal taqsimlangan jadvallarda bir xil qidiruv so'rovlari uchun ketgan o'rtacha vaqt (barcha taqsimlangan jadvallar guruhi bir xil 40 million yozuvni saqlaydi)



Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, 40 million yozuvga ega jadvalda qidiruv so'rovlarni o'rtacha 23.25 sekundda qayta ishlash uchun jadvalni taqsimlash shart emas. Qidiruv so'rovlarni o'rtacha 7.23 sekundda qayta ishlash uchun ushbu ma'lumotlarni har birida o'rtacha 20 million yozuvga ega 2 ta jadvalga taqsimlash kerak. Xuddi shunday ushbu so'rovlarni o'rtacha 1.33 sekundda qayta ishlash uchun har birida o'rtacha 3.079 million yozuvga ega 13 ta jadvalga taqsimlash kerak va hokazo. Demak namunada keltirilgan kabi ma'lumotlar to'plamida qidiruv so'rovlarni tajribada foydalanilgan hisoblash mashinasida 7,23 sekunda qayta ishlash uchun yozuvlarning taqsimlanish chegarasi 20 million, 1,33 sekunda qayta ishlash uchun 3,079 million, 0,82 sekunda qayta ishlash uchun 1,538 million, 0,77 sekunda qayta ishlash uchun 0,816 million qilib belgilanishi kerak.

Lekin yuqorida keltirilgan chegaralar faqat shu holatlar uchun o'rinci. Umumiylar barcha holatlar uchun chegaralarni aniqlash uchun quyidagi so'rov vaqtini topish formulasi (1) va olingan tajriba natijalaridan foydalaniladi.

$$t = t_1 \cdot N + t_{I/O} + \max(n(DT_1) \cdot t_2, n(DT_2) \cdot t_2, \dots, n(DT_k) \cdot t_2), \quad (1)$$

bu yerda  $t_1$  – yagona ma'lumotni gorizontal taqsimlangan jadvallarning biriga taqsimlash vaqt,  $N$  – umumiylar yozuvlar soni,  $n(DT_i)$  – inchi gorizontal taqsimlangan jadvaldagi yozular sonini  $i = \overline{1..k}$ ,  $t_2$  – jadvaldagi yagona yozuvni o'qib, so'rovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt,  $t_{I/O}$  – ma'lumot (so'rov)larni foydalanuvchi interfeysida kiritish va chiqarish uchun talab e'tilgan vaqt.

$t_1 \cdot N$  – taqsimlash jarayoni uchun sarf etiladigan vaqt bo'lib u gorizontal taqsimlangan jadvallar soni ( $n$ ) ga to'g'ri proporsional bo'lganligi uchun  $w_1 \cdot n$  ko'rinishida (bu yerda  $w_1$  – proporsionallik koeffitsenti) olish mumkin.  $\max(n(DT_1) \cdot t_2, n(DT_2) \cdot t_2, \dots, n(DT_k) \cdot t_2)$  – gorizontal taqsimlangan jadvallarda so'rov bajarilish vaqtini ifodalaydi. U gorizontal taqsimlangan jadvallar soniga teskari proporsional va gorizontal taqsimlangan jadvallardagi umumiylar yozuvlar soni ( $N$ )ga to'g'ri

proporsional bo'lganligi uchun  $w_2 \cdot \frac{N}{n}$  ko'rinishida olish mumkin. Aloqa vaqtini kabi hisoblash mashinasida ma'lumotlarning sxemalarda o'tish vaqtini hamda ma'lumot (so'rov)larni foydalanuvchi interfeysida kiritish va chiqarish uchun talab e'tilgan vaqt kabilar yig'indisi o'zgarmas deb olinadi [18]. Ushbu vaqlar yig'indisi  $w_0$  deb belgilab olinsa ichki taqsimlanish mexanizmi uchun so'rovlarni qayta ishlash vaqtini ( $t'$ ) quyidagi (2) formula orqali ifodalanadi:

$$t' = w_0 + w_1 \cdot n + w_2 \cdot \frac{N}{n} \quad (2)$$

Yuqorida aytilanidek  $n$  ta gorizontal taqsimlangan jadvallarda so'rovlarni  $t'$  vaqtida qayta ishlash uchun  $\frac{N}{n}$  taqsimlanish chegarasi ( $N_{ch}$ ) sifatida olinsa u quyidagi (3) formula orqali ifodalanadi:

$$N_{ch}(n, t') = \frac{t'}{\frac{w_2}{w_0}} - \left( \frac{w_0}{w_2} + \frac{w_1}{w_2} \cdot n \right) \quad (3)$$

(3) dan ko'rini turganidek,  $N_{ch} - t'$  va  $n$  larga bog'liq ikki o'zgaruvchili funksiya bo'ladi. Tajriba natijalarida olingan  $t'$  va  $n$  larni bu funksiyaga qo'yish orqali  $w_0, w_1$  va  $w_2$  lar topiladi. Natijada topilgan  $w_0, w_1$  va  $w_2$  larning qiymatlarini (3) formulaga qo'yish orqali ixtiyoriy  $t'$  va  $n$  sonlar juftligi uchun taqsimlanish chegarasi aniqlanadi.  $i$  ta ( $i = 1..n$ ) gorizontal taqsimlangan jadvallar uchun so'rov vaqtini  $t'$  o'zgarmas deb olinsa taqsimlanishlar chegaralari ( $k[]$ ) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$k[] = N_{ch}(i, t') \quad (4)$$

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ma'lumotlar oqimlarini ichki taqsimlash mexanizmi asosida boshqarish algoritmini quyidagi qadamlarda ifodalash mumkin:

1-qadam. Dastlabki ma'lumotlar bazasi ( $MB_{H0}$ ) shakllantiriladi;

2-qadam.  $i = 0$  va  $N = 0$  deb olinadi ( $i$  holatlarni ifodalaydi,  $N$  gorizontal taqsimlangan jadvallardagi umumiylar yozuvlar soni);

3-qadam. Dastlabki chegaralar qiymatlari belgilanadi va  $k[]$  massivga yoziladi;

4-qadam. Ma'lumotlarni gorizontal taqsimlangan jadvallarga taqsimlashning dastlabki qoidasi ( $TQ_i$ ) shakllantiriladi;

5-qadam. Ma'lumot (Data) kiritiladi;



6-qadam. Gorizontal taqsimlangan jadvallardagi umumi yozuvlar soni ( $N$ ) oshiriladi;

7-qadam. Gorizontal taqsimlangan jadvallardagi umumi yozuvlar soni ( $N$ ) chegara ( $k[i]$ ) bilan taqqoslanadi. Agar  $N$  chegaradan kichik bo'lsa 8-qadamga o'tiladi, aks holda 11-qadamga o'tadi;

8-qadam. Ma'lumot joriy taqsimlanish qoidasi ( $TQ_i$ ) asosida joriy ma'lumotlar bazasiga ( $MB_{Hi}$ ) saqlanadi ( $Data \rightarrow TQ_i \rightarrow MB_{Hi}$ );

9-qadam. Hisoblash mashinasining ma'lumotlar bazasi uchun ajratilgan bo'sh xotira hajmi ( $V$ ) aniqlanadi;

10-qadam. Agar bo'sh xotira hajmi mayjud bo'lsa 5-qadamga o'tiladi, aks holda 18-qadamga o'tiladi;

11-qadam.  $i$  ning qiymati birga oshiriladi;

12-qadam. Gorizontal taqsimlangan jadvallar soni oshiriladi va ma'lumotlar bazasining yangi holati ( $MB_{Hi}$ ) shakllantiriladi;

13-qadam. Ma'lumotlarni gorizontal taqsimlangan jadvallarga taqsimlashning yangi qoidasi ( $TQ_i$ ) shakllantiriladi;

14-qadam. Ma'lumotlar bazasining eski holati ( $MB_{Hi-1}$ ) dagi ma'lumotlar yangi taqsimlash qoidasi ( $TQ_i$ ) asosida ma'lumotlar bazasining yangi holati ( $MB_{Hi}$ )ga ko'chiriladi ( $MB_{Hi-1} \rightarrow TQ_i \rightarrow MB_{Hi}$ );


15-qadam. Tizim tarkibidagi joriy ma'lumotlar bazada amalga oshirilayotgan so'rovlariga mos holda yozuvlar chegaralari ( $k[ ]$ ) yangilanadi;

16-qadam. Hisoblash mashinasining ma'lumotlar bazasi uchun ajratilgan bo'sh xotira hajmi ( $V$ ) aniqlanadi;

17-qadam. Agar bo'sh xotira hajmi mayjud bo'lsa 5-qadamga o'tiladi, aks holda 18-qadamga o'tiladi;

18-qadam. Ushbu hisoblash mashinasi uchun jarayon yakunlanadi.

Ushbu algoritm amalga oshirish jarayoni 3-rasmida keltirilgan blok-sxema orqali ifodalanadi.



**3-rasm. Ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimlarda ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi blok-sxemasi**

Ushbu algoritmnini hisoblash mashinalarida amalga oshirish natijasida ma'lumotlar oqimlarini rejali saqlashga erishiladi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, har bir ma'lumot qaysi gorizontal taqsimlangan jadvalda saqlanganligi haqida aniq qoidalar yaratiladi va ushbu qoidalar ma'lumotlar ustida amalga oshiriladigan so'rovlar aniqligini oshirish bilan birgalikda vaqt bo'yicha samaradorlikka erishishga imkon beradi.

### Tajribalar va natijalar

Tadqiqotda davomida ishlab chiqilgan ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi talabalar haqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlovchi, ichki taqsimlash mexanizmiga ega bo'lgan axborot tizimiga qo'llanildi. Tajribada foydalanilgan ma'lumotlar bazasi tarkibida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- Tartib raqam;
- Oliy ta'lim muassasasi nomi;
- Talaba familiyasi, ismi va sharfi;
- Tug'ilgan yili va sanasi;



- Pasport seriyasi va raqami;
- Jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami;
- Talaba tug'ilgan viloyati, tumani (shahar) va mahallasi;
- Mutaxassisligi;
- Ta'lim darajasi;
- Ta'lim shakli;
- Telefon raqami.

Ushbu ma'lumotlar bazasidagi yozuvlar soni 655407 ta bo'lib, umumiy hajmi 125.07 Mbaytni tashkil etadi. Tajribalar hp markali quyidagi parametr ega kompyuterda amalga oshirildi:

- 1) Operativ xotira – 16 Gbayt;
- 2) Protsessor – Core i7 (12-avlod);
- 3) Protsessor chastotasi – 4.7 GHz;
- 4) Yadrolar soni – 12 ta;
- 5) Qattiq diskdan o'rtacha o'qish tezligi – 588 Mbayt/sekund;

6) Operativ xotira chastotasi – 3200 MHz;

Tajriba davomida ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar ikkita gorizontal taqsimlangan jadvallarga taqsimlandi. Tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

	Gorizontal taqsimlangan jadvallar soni	So'rovlarni o'rtacha qayta ishlash vaqtি
An'anaviy yondashuvga ega tizimda	1 ta	2.57 sekund
Ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimda	2 ta	0.96 sekund

**2-jadval. Ichki taqsimlash mexanizmiga ega axborot tizimiga ishlab chiqilgan algoritmnini qo'llash orqali so'rovlarni amalga oshirish va an'anaviy yondashuvga ega tizimda so'rovlarni amalga oshirish tajriba natijalari**

Tajriba natijalari keltirilgan 2-jadvaldan ko'rish mumkinki ishlab chiqilgan algoritmnini ichki taqsimlash mexanizmiga qo'llash orqali so'rovlarni qayta ishlash vaqtি 2,67 martaga yaxshilangan. Shuni takidlاب o'tish lozimki, olib borilgan tajribalar

ma'lumotlar hajmi oshishi ichki taqsimlash mexanizmining an'anaviy yondashuvga nisbatan samaradorligining yanada oshishiga olib keladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ichki taqsimlash mexanizmi katta ma'lumotlarda o'z samaradorligini yanada yaqqol namoyon qiladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushu tadqiqot ishi ichki taqsimlash mexanizmi – katta ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beruvchi hamda iqtisodiy samarali yondashuvlardan biri ekanligi yana bir bor isbotladi. Shu bilan birgalikda tadqiqot davomida ichki taqsimlash mexaznimini qo'llashda murakkablik yaratadigan omillarni hisobga olganda holda ma'lumotlar oqimlarini boshqarish algoritmi ishlab chiqildi, hamda uning qadamlari batafsil yoritildi. Shuningdek tadqiqotda o'tkazilgan tajribalar hamda olingan natijalar keltirib o'tildi. Tajriba natijalari ishlab chiqilgan algoritmnini ichki taqsimlash mexanizmiga ega tizimga qo'llash orqali 2.67 marta vaqt unumdarligiga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

### Adabiyotlar.

1. Akhatov A. & Rashidov A. "Big Data va unig turli sohalardagi tadbipi", Descendants of Muhammad Al-Khwarizmi, 2021, № 4 (18), 135-44
2. Bhadani, A., Jothimani, D. (2016), Big data: Challenges, opportunities and realities, In Singh, M.K., & Kumar, D.G. (Eds.), Effective Big Data Management and Opportunities for Implementation (pp. 1-24), Pennsylvania, USA, IGI Global
3. Ch. Eaton, D. deRoos, T. Deutsch, G. Lapis, P. Zikopoulos, "Understanding Big Data: Analytics for Enterprise Class Hadoop and Streaming Data", The McGraw-Hill Companies, 2012.
4. Ахатов А.Р., Рашидов А.Э., Назаров Ф.М. "Суғурта соҳасида Big Data тиридаги маълумотлар ва уларнинг хусусиятлари" "Yangi O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Andijon mashinasozlik instituti, 2021-yil 27-29-oktabr, 605-608-b



5. A.R. Akhatov, A.E. Rashidov, F.M. Nazarov  
"Increasing data reliability in big data systems" //  
Scientific Journal of Samarkand State University 2021,  
№5, 106-14

6. Inderpal Singh "Review on Parallel and  
Distributed Computing" Scholars Journal of  
Engineering and Technology (SJET), 2013, № 1(4):  
218-225

7. Akhatov A., Renavikar A., Rashidov A. &  
Nazarov F. "Development of the Big Data processing  
architecture based on distributed computing systems"  
Informatika va energetika muammolari O'zbekiston  
jurnali, № (1) 2022, 71-79

8. A.R. Akhatov, F.M. Nazarov, A.E. Rashidov  
"Increasing data reliability by using bigdata  
parallelization mechanisms" ICISCT 2021:  
Applications, Trends and Opportunities, 3-5.11.2021,  
doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670387

9. Ruslan. L. Smeliansky "Model of Distributed  
Computing System Operation with Time"  
Programming and Computer Software, 2013, Vol. 39,  
No. 5, 233–241 p., doi: 10.1134/S0361768813050046

10. Akhatov A., Renavikar A., Rashidov A.  
"Optimization of the database structure based on  
Machine Learning algorithms in case of increased data  
flow" Proceedings of the International Conference on  
Artificial Intelligence, Blockchain, Computing And  
Security (ICABCS 2023), Gr. N01 Da, Up, India, 24-  
25 February 2023

11. A. Rashidov, A. Akhatov and D. Mardonov,  
"The Distribution Algorithm of Data Flows Based on  
the BIRCH Clustering in the Internal Distribution  
Mechanism," 2024 International Russian Smart  
Industry Conference (SmartIndustryCon), Sochi,  
Russian Federation, 2024, pp. 923-927, doi:  
10.1109/SmartIndustryCon61328.2024.10516193.

12. Rashidov, A., Akhatov, A. R., & Nazarov,  
F. M. (2023). Real-Time Big Data Processing Based on  
a Distributed Computing Mechanism in a Single  
Server. In C. Ananth, N. Anbazhagan, & M. Goh  
(Eds.), Stochastic Processes and Their Applications in  
Artificial Intelligence (pp. 121-138). IGI Global.  
<https://doi.org/10.4018/978-1-6684-7679-6.ch009>

13. Rashidov, A., Akhatov, A., Nazarov, F.  
(2023). The Same Size Distribution of Data Based on  
Unsupervised Clustering Algorithms. In: Hu, Z.,  
Zhang, Q., He, M. (eds) Advances in Artificial Systems  
for Logistics Engineering III. ICAILE 2023. Lecture  
Notes on Data Engineering and Communications  
Technologies, vol 180. Springer, Cham.  
[https://doi.org/10.1007/978-3-031-36115-9\\_40](https://doi.org/10.1007/978-3-031-36115-9_40)

14. Nazarov F, Rashidov A, Pardayev M,  
Sunnatova S. (2023). Clustering Method Of  
Distributed Technologies In Data Flow Management.  
Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal  
of Education (2994-9521), 1(5), 222-225.  
<https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/115>

15. A. Rashidov, A. Akhatov, I. Aminov, D.  
Mardonov "Distribution of data flows in distributed  
systems using hierarchical clustering" International  
conference on Artificial Intelligence and Information  
Technologies (ICAIIIT 2023), Samarkand 2023,  
November 3-4.

16. Akhatov A., Renavikar A., Rashidov A.,  
Nazarov F. "Optimization of the number of databases  
in the Big Data processing" Проблемы информатики,  
№ 1(58) 2023, DOI: 10.24412/2073-0667-2023-1-33-  
47

17. A.R.Akhatov, Rashidov A.E. "Machine  
Learning asosida taqsimlangan ma'lumotlar bazasi  
sonini optimallashtirish" "Kompyuter ilmlari va  
muhandislik texnologiyalari" Xalqaro ilmiy texnik  
konferensiya, 2022, 14-15- oktabr, 110-112

18. Rashidov A.E., Sayfullaev J.S. "Selecting  
methods of significant data from gathered datasets for  
research" International journal of advanced research in  
education, technology and management, Vol. 3 No. 2  
(2024), p. 289-296, doi: 10.5281/zenodo.10781255

